



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL

IYUN/6-SON, II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOYIY NATIJALARI	12
Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich	
Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN'YIY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O'RNI	16
Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi	
METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH	20
Abbos Saydullaev	
Iqboloy Choriyorova	
O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI	31
Ibragimova Rayxon Tojibayevna	
OZIQ-OVQAT SANOATIDA "ZAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)" MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	36
Elnoraxon Muminova Abdukurimovna	
Sarvinov Mamatojiyeva Dilshodjon qizi	
TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	42
Umarova Dilfuza Rahmatulla qizi	
ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ МИСЕ-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ	47
Narzulloeva Fariza Akmalевна	
ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION	53
Gaybullayev Sarvar Uktam ugli	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHİYATI VA NAZARIY ASOSLARI	59
Mizamova Umida Jamoliddin qizi	
SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O'RNI	64
Mamatraimov Anvar Chorshanbiyavich	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O'RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	72
Olimova Shahlo Bahodir qizi	
Inomova Mahliyo Yusuf qizi	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI VA TASHQI AUDITNING NAZARIY ASOSLARI	76
Toshimov Azizbek Hakimovich	
Quvondiqov Shohboz Normamat o'g'li	



TIJORAT BANKLARIDA ICHKI VA TASHQI AUDITNING NAZARIY ASOSLARI

Toshimov Azizbek Hakimovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrası assistenti
ORCID: 0000-0003-4835-8768
mail: tsohimovazizbek@gmail.com

Quvondiqov Shohboz Normamat o'g'li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
2m-bh-121 guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tijorat banklarida ichki va tashqi auditning nazariy asoslari, ularning iqtisodiy mohiyati, vazifalari, tamoyillari hamda bank faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi o'rni ilmiy jihatdan yoritilgan. Tijorat banklari iqtisodiyotda moliyaviy vositachilikni amalga oshiruvchi muhim institut sifatida kreditlash, depozitlarni jalb qilish, hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish, valyuta amaliyotlari, investitsion faoliyat hamda boshqa moliyaviy xizmatlarni ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, ichki audit, tashqi audit, bank nazorati, moliyaviy hisobot, moliyaviy barqarorlik.

Abstract. This article examines the theoretical foundations of internal and external audit in commercial banks, their economic essence, functions, principles, and their role in ensuring the financial stability of banking operations. Commercial banks, as key financial intermediaries in the economy, provide lending services, attract deposits, conduct settlement transactions, perform foreign exchange operations, engage in investment activities, and offer various financial services.

Keywords: commercial banks, internal audit, external audit, banking supervision, financial reporting, financial stability.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические основы внутреннего и внешнего аудита в коммерческих банках, их экономическая сущность, функции, принципы и роль в обеспечении финансовой устойчивости банковской деятельности. Коммерческие банки, являясь важными институтами финансового посредничества в экономике, осуществляют кредитование, привлечение депозитов, расчетные операции, валютные операции, инвестиционную деятельность и оказывают различные финансовые услуги.

Ключевые слова: коммерческие банки, внутренний аудит, внешний аудит, банковский надзор, финансовая отчетность, финансовая устойчивость.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari mamlakat moliya tizimining muhim bo'g'ini sifatida iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirish, aholi jamg'armalarini jalb qilish, tadbirkorlik subyektlarini kreditlash, to'lovlar uzluksizligini ta'minlash hamda moliyaviy resurslarni samarali taqsimlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Bank tizimining barqarorligi nafaqat alohida banklar faoliyatiga, balki butun iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligi, investitsion jozibadorligi va iqtisodiy o'sish sur'atlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida bank tizimini isloh qilish, tijorat banklari faoliyatini bozor tamoyillari asosida rivojlantirish, bank xizmatlari sifatini oshirish, korporativ boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish hamda moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bank faoliyatining ko'lami va murakkabligi uning doimiy nazorat ostida bo'lishini taqozo etadi. Chunki banklar jalb qilingan mablag'lar, kredit portfeli, depozit operatsiyalari, valyuta operatsiyalari, qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq amaliyotlar hamda boshqa moliyaviy xizmatlarni amalga oshiradi. Bunday sharoitda xatoliklarning oldini olish, hisob yuritishning aniqligini ta'minlash, kredit, likvidlik, foiz va operatsion risklarni samarali boshqarishda audit tizimi muhim ahamiyat kasb etadi.



Tijorat banklarida audit ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi: ichki audit va tashqi audit. Ichki audit bankning o'z tarkibida tashkil etiladigan nazorat va maslahat berish faoliyati bo'lib, u bank operatsiyalarining qonuniyligi, samaradorligi hamda ichki tartib-qoidalarga muvofiqligini baholaydi. Tashqi audit esa mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshirilib, bank moliyaviy hisobotlarining haqqoniyliqi, buxgalteriya hisobining to'g'ri yuritilishi va moliyaviy natijalarning ishonchligini tekshiradi. Mazkur audit turlari bank faoliyatining shaffofligini ta'minlash, manfaatdor tomonlarning ishonchini mustahkamlash hamda moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida ichki va tashqi audit masalalari iqtisodiy adabiyotlarda bank nazorati, moliyaviy hisobot, buxgalteriya hisobi, risk-menejment va korporativ boshqaruv bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Xorijiy olimlar A.A. Arens, R.J. Elder va M.S. Beasley auditni moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini baholash, auditorlik dalillarini yig'ish hamda auditorlik xulosasini shakllantirish jarayoni sifatida izohlaydilar. Ularning "Auditing and Assurance Services" asarida tashqi audit moliyaviy hisobotlarning ishonchligini tasdiqlash orqali foydalanuvchilarning qaror qabul qilish jarayonida muhim axborot bazasini shakllantirishi ta'kidlangan. Ushbu yondashuv tijorat banklarida tashqi auditning ahamiyatini ochib beradi, chunki bank moliyaviy hisobotlaridagi noaniqliklar manfaatdor tomonlarning ishonchiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tadqiqotlarida tijorat banklarida audit bank faoliyatining shaffofligini ta'minlash, bank resurslaridan samarali foydalanish, kredit portfeli sifatini baholash, daromad va xarajatlarni nazorat qilish hamda moliyaviy intizomni mustahkamlash vositasi sifatida talqin etiladi. O'zbekiston iqtisodchi olimlari Sh.N. Fayziyev, R.D. Do'smurotov, A.A. Karimov, I.N. Qo'ziyev va A.Z. Avloqulov tomonidan tayyorlangan "Audit" darsligida auditorlik faoliyatining nazariy asoslari, auditorlik dalillari, auditorlik tekshiruv bosqichlari, ichki nazorat tizimi hamda auditorlik xulosasini shakllantirish masalalari yoritilgan. Ushbu darslik tijorat banklarida auditni tashkil etish va takomillashtirishda muhim nazariy-metodik manba sifatida xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolani tayyorlashda tijorat banklarida ichki va tashqi auditning nazariy asoslarini o'rganishga qaratilgan tizimli yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini bank faoliyati, buxgalteriya hisobi, audit, moliyaviy nazorat va risk-menejmentga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi. Metodologik jihatdan tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, mantiqiy fikrlash, tizimli yondashuv va ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Audit keng ma'noda xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini mustaqil tekshirish, baholash va xulosa berish jarayonidir. Tijorat banklari faoliyatida auditning ahamiyati boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan yanada yuqori hisoblanadi. Chunki banklar aholi omonatlari, korxonalar mablag'lari, davlat mablag'lari, xalqaro moliyaviy institutlar resurslari hamda boshqa jalb qilingan mablag'lar bilan faoliyat yuritadi. Shu bois bank faoliyatida ishonchlik, shaffoflik va moliyaviy intizom ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bank auditining iqtisodiy mohiyati shundan iboratki, u bank faoliyatining qonuniyligi, moliyaviy hisobotlarning haqqoniyliqi, ichki nazorat tizimining samaradorligi, risklarni boshqarish darajasi hamda bank resurslaridan foydalanish samaradorligini baholaydi. Audit bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatoliklar, tashkiliy kamchiliklar va moliyaviy risklarni o'z vaqtida aniqlashga yordam beradi.

Tijorat banklarida audit faqat moliyaviy hisobotlarni tekshirish bilan cheklanmaydi. U bankning kredit siyosati, depozit siyosati, likvidlikni boshqarish, aktivlar sifati, kapital yetariligi, daromad va xarajatlarning shakllanishi, filiallar faoliyati, axborot texnologiyalari xavfsizligi hamda ichki nazorat tizimini ham qamrab oladi. Shu jihatdan bank auditi kompleks nazorat va baholash tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Ichki audit tijorat bankining boshqaruv tizimida tashkil etiladigan mustaqil va obyektiv baholash faoliyatidir. Uning asosiy maqsadi bank xodimlari va rahbariyatiga o'z vazifalarini samarali bajarishda ko'maklashish, bank operatsiyalarining qonuniyligi va samaradorligini baholash, ichki nazorat tizimidagi takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash hamda risklarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Normativ manbalarda ichki audit bank ichida tashkil etiladigan tekshirish va baholash faoliyati sifatida talqin qilinadi.



Ichki auditning nazariy asoslari bir nechta muhim tamoyillarga tayanadi. Birinchidan, mustaqillik tamoyili. Ichki auditor bankning tekshirilayotgan bo'linmalaridan mustaqil bo'lishi lozim. Ikkinchidan, obyektivlik tamoyili. Auditor tekshiruv natijalarini shaxsiy manfaatlar, rahbariyatning ta'siri yoki boshqa subyektiv omillardan holi ravishda baholashi zarur. Uchinchidan, tizimlilik tamoyili. Ichki audit bank faoliyatining barcha muhim yo'nalishlarini qamrab olishi va ular bo'yicha haqqoniy xulosalar berishi kerak.

Ichki audit bankning risklarni boshqarish tizimida alohida o'rin tutadi. Tijorat banklari kredit riski, likvidlik riski, foiz riski, valyuta riski, operatsion risk va huquqiy risklarga duch keladi. Ichki audit ushbu risklarni aniqlash, baholash va ularni samarali boshqarish bo'yicha bank rahbariyatiga tavsiyalar beradi. Ayniqsa, kredit portfeli sifatini baholash, muammoli kreditlar bo'yicha zaxiralar shakllantirilishini tekshirish, garov ta'minoti hujjatlarini o'rganish hamda kredit qarorlarining asoslanganligini baholash ichki auditning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Tijorat banklarida ichki audit quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Bank operatsiyalarining qonun hujjatlari, Markaziy bankning me'yoriy talablari va bankning ichki siyosatlariga muvofiqligini tekshirish.
2. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning to'g'ri yuritilishini baholash.
3. Bank aktivlari va majburiyatlari ustidan nazoratni kuchaytirish.
4. Daromad va xarajatlarning to'g'ri hisobga olinishi hamda ularning moliyaviy natijalarga ta'sirini tahlil qilish.
5. Ichki nazorat tizimining samaradorligini baholash.
6. Bank faoliyatidagi risklarni aniqlash va ularni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.
7. Filiallar va tarkibiy bo'linmalar faoliyatini nazorat qilish.
8. Bank faoliyatida moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda xatoliklarning oldini olishga ko'maklashish.
9. Bank kengashi va rahbariyatiga mustaqil axborot taqdim etish.

Ichki auditning samaradorligi bankda korporativ boshqaruv sifatini oshiradi. Agar ichki audit xizmati mustaqil, malakali va yetarli vakolatlariga ega bo'lsa, u bank faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni dastlabki bosqichlarda aniqlash imkonini beradi. Shu sababli O'zbekiston amaliyotida ichki audit xizmatining bank kengashi bilan bevosita bog'liqligi uning mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Tashqi auditning nazariy asoslari. Tashqi audit tijorat banki moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan tekshirish jarayonidir. Ichki audit bank ichida tashkil etilsa, tashqi audit bankdan tashqaridagi mustaqil auditorlar tomonidan amalga oshiriladi. Tashqi auditning asosiy maqsadi bank moliyaviy hisobotlari belgilangan standartlar asosida tuzilganligini hamda unda bankning moliyaviy holati, daromadlari, xarajatlari va moliyaviy natijalari ishonchli aks ettirilganligini aniqlashdan iborat.

Tashqi auditning nazariy asoslari quyidagi tamoyillarga tayanadi. Birinchidan, mustaqillik tamoyili bo'lib, auditor tekshirilayotgan bankdan mustaqil bo'lishi lozim. Ikkinchidan, obyektivlik tamoyili bo'lib, auditor xulosalari faqat auditorlik dalillariga asoslanishi kerak. Uchinchidan, tizimlilik tamoyili bo'lib, auditorlik tekshiruvi bank faoliyatining barcha muhim yo'nalishlarini reja asosida qamrab olishi lozim. To'rtinchidan, xolislik va maxfiylik tamoyillari bo'lib, auditor bank sirlariga rioya qilgan holda tekshiruv natijalarini haqqoniy aks ettirishi zarur.


Hozirgi sharoitda bank faoliyatining raqamlashtirilishi, masofaviy bank xizmatlarining kengayishi, fintech kompaniyalari bilan hamkorlik va raqobat muhitining rivojlanishi hamda moliyaviy risklarning murakkablashuvi audit tizimini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirishni talab etadi. Tijorat banklarida ichki va tashqi auditni yanada rivojlantirish uchun quyidagi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi (1-rasm).

Yuqoridagi rasmda tijorat banklarida ichki va tashqi auditni takomillashtirish yo'nalishlarining qisqacha sharhi keltirilgan.

Birinchidan, ichki auditni riskka yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish zarur. Bunda audit rejasi bank faoliyatidagi eng muhim risklar asosida shakllantiriladi. Ikkinchidan, auditorlarning malakasini oshirish muhimdir. Bank auditni moliya, buxgalteriya hisobi, kreditlash, IT xavfsizligi, xalqaro standartlar va risk-menejment bo'yicha chuqur bilimlarni talab qiladi. Uchinchidan, audit jarayonlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish lozim. Avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari katta hajmdagi bank operatsiyalarini tezkor tahlil qilish imkonini beradi. To'rtinchidan, ichki audit xizmati mustaqilligini yanada mustahkamlash zarur. Ichki auditorlarning tekshirilayotgan bo'linmalar rahbarlariga emas, balki bank kengashiga hisobdor bo'lishi ularning xolisligini ta'minlaydi. Beshinchidan, tashqi auditorlar bilan samarali axborot almashinuvi yo'lga qo'yilishi lozim. Oltinchidan, daromad va xarajatlarning auditi alohida chuqurlashtirilishi kerak. Chunki bankning moliyaviy natijasi aynan daromadlar va xarajatlarning haqqoniy hisobga olinishi bilan belgilanadi.



Tijorat banklarida ichki va tashqi auditni takomillashtirish yoʻnalishlari



1-rasm. Tijorat banklarida ichki va tashqi auditni takomillashtirish yoʻnalishlari¹

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tijorat banklarida ichki va tashqi audit bank faoliyatining shaffofligi, moliyaviy intizomi, risklarni boshqarish tizimi hamda moliyaviy hisobotlar ishonchligini taʼminlovchi muhim nazorat mexanizmlaridir. Ichki audit bank ichida tashkil etilib, operatsiyalarning qonuniyligi, ichki nazorat samaradorligi, risklar darajasi va boshqaruv jarayonlarini baholaydi. Tashqi audit esa mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshirilib, bank moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligi yuzasidan xulosa beradi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, ichki va tashqi auditning samarali tashkil etilishi bank faoliyatida moliyaviy intizomni mustahkamlash, risklarni erta aniqlash, hisob yuritish aniqligini oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanishga xizmat qiladi. Ayniqsa, daromad va xarajatlar auditi bank moliyaviy natijalarining haqqoniyligini taʼminlashda muhim ahamiyatga ega. Chunki daromadlar va xarajatlarning toʻgʻri hisobga olinishi bank foydasi, rentabelligi va moliyaviy barqarorligi koʻrsatkichlariga bevosita taʼsir qiladi.

Shu bois tijorat banklarida audit tizimini takomillashtirish, ichki audit mustaqilligini mustahkamlash, auditorlar malakasini oshirish, raqamli audit texnologiyalaridan foydalanish va riskka yoʻnaltirilgan audit yondashuvini keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Natijada bank faoliyatining shaffofligi oshadi, moliyaviy hisobotlar ishonchligi mustahkamlanadi va bank tizimining barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi samarali nazorat muhiti shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. — Toshkent: Oʻzbekiston, 2023. — 80 b.
2. Oʻzbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”gi OʻRQ–580-son Qonuni. Yangi tahriri, 2019-yil 5-noyabr. — Qonunchilik maʼlumotlari milliy bazasi. <https://lex.uz/ru/docs/-4581969>

1 Mualliflar ishlanmasi



3. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RBQ-404-son Qonuni. — 2016-yil 13-aprel. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 14.04.2016. <https://lex.uz/docs/-2931253?otherlang=1>

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni. — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi <https://lex.uz/docs/-4811025>

5. Arens A.A., Elder R.J., Beasley M.S. Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach. — 17th Edition. — Harlow: Pearson Education Limited, 2017.

6. Fayziyev Sh.N., Do'smurotov R.D., Karimov A.A., Qo'ziyev I.N., Avloqulov A.Z. Audit: darslik. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2015.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>